



ICHKI ISHLAR ORGANLARI NAVBATCHILIK QISMLARI FAOLIYATIDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Baratov Asadbek Ahadilla o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ichki ishlar organlari (IIO) navbatchilik qismlarining faoliyatini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. IIO navbatchilik qismlari jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikni oldini olish va tezkor javob berish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Maqolada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xodimlarning malakasini oshirish, fuqarolar bilan samarali aloqa o'rnatish va rejalashtirish jarayonlari taklif etiladi. Tahlil natijalari navbatchilik qismlarining samaradorligini oshirish uchun zaruriy choralarni belgilaydi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tavsiyalar IIO faoliyatining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi va jamoat xavfsizligini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: navbatchilik qismi, navbatchi, kirish-chiqish, jamoat xavfsizligi, jinoyatchilikni oldini olish, "102" operatori, tezkor javob berish, zamonaviy texnologiyalar, samaradorlik

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования деятельности дежурных частей внутренних дел (ВД) Республики. Дежурные части ВД выполняют важные задачи по обеспечению общественной безопасности, предотвращению преступности и обеспечению оперативного реагирования. В статье предлагаются меры по внедрению современных технологий, повышению квалификации сотрудников, установлению эффективного взаимодействия с



гражданами и организации планирования. Результаты анализа определяют необходимые меры для повышения эффективности работы дежурных частей и играют важную роль в укреплении доверия общества. Данные рекомендации направлены на улучшение качества работы ВД и дальнейшее укрепление общественной безопасности.

Ключевые слова: Дежурный отдел, дежурный, вход-выход, общественная безопасность, профилактика преступности, оператор «102», оперативное реагирование, современные технологии, эффективность.

Abstract: This article examines the issues of improving the work of duty units of internal affairs bodies (IAB). IAB duty units perform critical tasks such as public safety, crime prevention, and rapid response. The article suggests implementation of modern technologies, improvement of staff skills, effective communication with citizens and planning processes. The results of the analysis determine the necessary measures to improve the efficiency of the duty units and are important in strengthening public confidence. These recommendations serve to improve the quality of IAB activities and help to further strengthen public safety.

Key words: duty section, duty officer, entry-exit, public safety, crime prevention, "102" operator, rapid response, modern technologies, efficiency

Ichki ishlar organlarining navbatchilik qismlari faoliyati bevosita respublikaning barcha hududlarida fuqarolarning osoyishtaligini hamda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash bilan birgalikda jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish, voqea hodisalarni o'z vaqtida qayd etish va xodimlarning maqsadli jalb etish orqali zudlik bilan ularning oldini olish faoliyati bilan shug'ullanadi.



Navbatchilik qismlari ichki ishlar organining navbatchilik qism va xizmatlari, O'zbekiston Respublikasi IIVning bosh boshqarma, boshqarma va mustaqil tuzilmalaridagi, oliy ta'lim muassasalari, Qorovul qo'shinlari va JIEMdagi barcha saf bo'linmalaridagi navbatchilik qismlar, YHXX Markaziy axborot-dispecherlik xizmati, ularning quyi bo'g'inlaridagi navbatchilik xizmatlari hisoblanadi. "102" operatori jinoyatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish va ro'yxatga olishning yagona avtomatlashtirilgan tizmi operatoridir.

Navbatchilik vaqtida ichki ishlar organlari navbatchilik qismi xodimlariga navbatma-navbat ovqatlanish va qisqa muddatli dam olish uchun umumiy davomiyligi uch smenalik rejimda — olti soat, to'rt smenalik rejimda — to'rt soat davom etadigan tanaffuslar beriladi.

Smena tugagach, ichki ishlar organlari navbatchilik qismlarining xodimlari hamda xizmat vazifalarini sutkalik navbatchilik rejimida doimiy bajaruvchi boshqa xodimlarga belgilangan tartibda dam olish beriladi.

Shtatdagi navbatchilik qismi xodimlariga navbatchilik topshirilgandan so'ng uch smenali ish hajmida 48 soat, to'rt smenali ish hajmida 72 soat, boshqa xizmatlardan tayinlangan zaxiradagi navbatchilarga 48 soat xizmatdan so'ni belgilanadi. Smenadan tashqari bo'lgan, ya'ni navbatchilik qismining xizmatdam so'ni vaqtdagi xodimlari kasbiy mahoratni oshirish borasida alohida jadval asosida ma'rifat va siyosiy o'qish darsi, xizmat va jangovar hamda jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari soatlari jalb etiladi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda axborot texnologiyalari barcha sohalarga kirib bormoqda. Shu jumladan ichki ishlar organlari faoliyatida ham zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktyabrdagi "Ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 645-sonli Qaroriga muvofiq Navbatchilik xizmati faoliyatiga raqamli texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida, Ichki ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalarini va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirliklari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi:



Barcha ichki ishlar organlari navbatchilik qismlarini optik tolali aloqa kabeli bilan ta'minlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar bosh boshqarmasi va viloyat boshqarmalari navbatchilik qismari uchun 14 ta, shahar-tuman ichki ishlar organlari navbatchilik qismlari uchun 206 ta, Transportda xavfsizlikni ta'minlash bosh boshqarmasi va hududiy tarmoqlari navbatchilik qismlari uchun 17 ta, jami 237 ta kompyuter jamlamasi (*printer, skaner, UPS*) hamda 237 ta ovozni yozib oluvchi raqamli videokuzatuv moslamalar bilan ta'minlash;

Hududiy ichki ishlar organlar bilan doimiy aloqani ta'minlash uchun trunk aloqa tizimini joriy etish;

Kuch va vositalarni boshqarishning sifat jihatdan yangicha amaliyotini joriy qilish uchun "Situatsion boshqaruv" kompleks tizimini joriy qilish;

Navbatchilik qismlarida saqlanayotgan qurol-aslaha, elektroshokerlar va boshqa anjomlarni hisobini yuritish, tarqatish va qabul qilish tartibini nazorat qilish maqsadida "E-Qurol" axborot tizimini joriy etish;

Ichki ishlar organlariga fuqaro va avtotransportning kirib-chiqishini nazorat qilish maqsadida "E-Turniket" axborot tizimini joriy etish.

Ichki ishlar organlarining navbatchilik qismlari xodimlarining xizmat faoliyati O'zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 9-sentyabrdagi "IIV Situatsion-tahliliy markaz hamda uning tizimiga kiruvchi Navbatchilik qismlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 473-sonli buyrug'iga asosan amalga oshiriladi. Ichki ishlar organlarining navbatchilik qismlari sutkalik naryadining xizmati yigirma to'rt soatga mo'ljallab tashkil etiladi.

Xususan, ichki ishlar organlarining kriminogen vaziyat barqarorligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini raqamlashtirish orqali sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka



qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarorining 4-bandida: *"Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida Yagona tezkor boshqaruv markazini tashkil etilishi"* belgilangan bo'lib, shu asosda, 2021-yilning aprel-iyul oylari davomida Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida markaz ma'muriy binosi barpo etilib foydalanishga topshirildi.

Poytaxt hududidagi barcha bino va inshootlar xatlovdan o'tkazilib, xatlov natijasida 45 mingga yaqin ob'ektlar, 607 mingdan ortiq xonadonlar, shuningdek, 4 mln.ga yaqin fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanib, dasturga kiritilib, markazning asosiy platformasi "Geoinformatsion elektron xarita" avtomatlashtirilgan dasturi ishlab chiqildi.

Toshkent shahridagi 10 mingdan ortiq turar va noturar joylardagi 7300 tadan ortiq videokuzatuv kameralari ham ulangan. Mazkur tizim ko'cha va jamoat joylarida xizmat olib borayotgan xodimlarni onlayn kuzatish, hodisa joyiga 3-5 daqiqada etib borish imkonini beradi. Uning yordamida poytaxtda sodir qilingan 925 ta jinoyat tezkor fosh etilishiga erishilgan. Mazkur markaz tarkibiga Navbatchilik qismi, maxsus vositalarni tarqatish guruhi, "102" xizmati, Kuch va vositalarni boshqarish guruhi, Yo'l harakati xavfsizligi, Patrul-post xizmati, Profilaktika xizmati bo'yicha, Xavfsiz turizmni ta'minlash, Metodik ta'minlash va Texnik ta'minlash guruhlari kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Ichki ishlar organlari navbatchilik qismlarining faoliyatini takomillashtirish nafaqat jinoyatchilikni kamaytirish, balki fuqarolarning ishonchini oshirishda ham muhimdir. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xodimlarning malakasini oshirish, fuqarolar bilan hamkorlik va tizimli rejalashtirish orqali IIO navbatchilik qismlarining samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida jamoat xavfsizligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3413-son Qarori;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi “Toshkent viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari kuch va vositalarini boshqarishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-4343 sonli Qarori;
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktyabrdagi “Ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 645-sonli Qarori;
4. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 9-sentyabrdagi “IIV Situatsion-tahliliy markaz hamda uning tizimiga kiruvchi Navbatchilik qismlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 473-sonli buyrug‘i.